

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING "PADARKUSH" DRAMASIDA
ZIYOLILARNING O‘RNI****Shodiyeva Rohila Burxonovna***Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabining o‘quvchisi
+998908820529, imbookdragon88@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi tahlil qilinib, asarda ziyolilarning jamiyatdagi o‘rni va ularning islohotchi kuch sifatidagi roli yoritilgan. Asarda ziyolilar ilm va ma‘rifat orqali jamiyatni o‘zgarishga undaydi va qoloqlikdan chiqish yo‘llarini ko‘rsatadi. Shuningdek, asardagi ziyoli oiladan chiqqan asosiy qahramon domla va ziyolilarning obraziga alohida e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar. Behbudi, Padarkush, jadidchilik, ziyolilar, ma‘rifat, islohot, domla, ziyoli, o‘zgarish.

Annotation. This article analyzes Mahmudkhoja Behbudi's drama *Padarkush*, which highlights the role of intellectuals in society and their significance as a reformist force. The work demonstrates how intellectuals encourage societal change through knowledge and enlightenment, offering pathways out of backwardness. Special attention is also given to the character of religious teacher, the main protagonist from an intellectual family.

Keywords. Behbudi, Padarkush, Jadidism, intellectuals, enlightenment, reform, religious teacher, intellectual, change.

Аннотация. В данной статье анализируется драма Махмудходжи Бехбудий «Падаркуш», в которой освещается роль интеллигенции в обществе и их значение как реформаторской силы. В произведении показано, как представители интеллигенции посредством знаний и просвещения способствуют изменению общества и помогают выйти из состояния отсталости. Также уделяется особое внимание образу главного героя богослова, происходящего из интеллигентной семьи.

Ключевые слова. Бехбудий, Падаркуш, джадидизм, интеллигенция, просвещение, реформа, образованный человек, богослов, изменение.

"Padarkush" – Behbudiyning yagona fojiaiviy dramasi bo‘lib, 1913-yilda yozilgan va sahnalashtirilgan. Mazkur asar o‘z davrining ilk sahna asarlaridan biri sifatida tanilgan. Asar orqali muallif o‘sha davr jamiyatidagi muhim muammolarni, xususan, eski va yangi dunyo to‘qnashuvi, johillikning zararli oqibatlari, oilaviy tarbiyaning ahamiyati kabi masalalarni yoritadi.

Asardagi ziyolilar jamiyatni savodsizlik va qoloqlikdan chiqarish uchun kurashadi. Ular zamon yoshlari va ilgʻor kishilariga taʼlimning ahamiyatini tushuntirib, yangicha fikrlashga undaydi. Bu jarayonda ilm va maʼrifat jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida tasvirlanadi. Ziyolilar jamiyatdagi eskicha urf-odatlariga qarshi chiqib, yangiliklarni joriy qilishga harakat qiladi. Ular jamiyatni rivojlantirish yoʻlida yangicha fikrlashni shakllantirish muhimligini omma ongiga sindirishga uringanlar.

Asar qahramonlari orasida bilimli insonlar hayotga ilm orqali qarash zarurligini targʻib qiladi. Faqat aql va tafakkur orqali jamiyat oldinga siljishi mumkinligi taʼkidlanadi. Asardagi asosiy ziyoli qahramonlar domla va ziyoli hisoblanadi. Ziyoli zamonaviy taʼlim olib, ruschada oʻqigan yosh jadidchi. Domla esa yangicha fikrlaydigan bir din odami sifatida tasvirlanadi. Domla va ziyoli jamiyatdagi qoloqlikka qarshi kurashib, ilm va tafakkur bilan rivojlanish tarafdori boʻladi. Ammo jamiyatning yuqori yaʼni zodagon qatlami, shuningdek, hukumat ham bunga yoʻl bermaydi.

Asarda boy obraziga ziyoli va domla bekorchi va maishatparast oʻgʻli Toshmurodni maktabda oʻqitib taʼlim-tarbiya berishi kerakligi aytishadi. Biroq boy oʻgʻlini oʻqitishni istamaydi. Natijada boy hamda uning yagona oʻgʻli Toshmurod fojiali taqdirga duch keladi. Sarmast farzand doʻsti bilan birgalikda oʻz uyiga oʻgʻrilikka tushadi va ttortishuvli vaziyatda otasini bilmasdan oʻldirib qoʻyadi. Bu esa asarning asosiy fojiasi boʻlib, eski va yangi qarashlarning murosasizligi natijasida yuzaga kelgan.

Domla va ziyoli obrazlari ilm va tafakkur bilan qurollantirilgan boʻlib, jamiyatni isloh qilishga, yangicha qarashlarni shakllantirishga harakat qilishadi. Ular eski qarashlarga qarshi turib, kelajakka umid bilan intiladigan ziyoli qatlamning timsoli sifatida tasvirlanadi.

Xulosa. Mahmudxoʻja Behbudiy "Padarkush" asari orqali maʼrifat va ilm yoʻlida kurashgan jadidchilik harakatining mohiyatini yoritib bergan. Asar bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan boʻlib, yosh avlod tarbiyasida, ilm va maʼrifatning ahamiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Behbudiy dramasi oʻzbek adabiyoti va madaniyatining tarixiy taraqqiyotida alohida oʻrin tutadigan asarlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Behbudiy, M. "Padarkush" – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Nashriyoti, 1913.
2. Karimov, A. "Jadidchilik harakati va uning taʼsiri" – Toshkent: Fan, 2000.
3. Rustamov, X. "Oʻzbek dramaturgiyasi tarixi" – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Ismoilov, S. "Oʻzbek adabiyoti va jadidchilik" – Toshkent: Adabiyot, 2018.
5. "Yoxud oʻqimagan bolaning holi" – Namangan Davlat Universiteti, 2024.